

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA MAFTUNAXON JAMSHID QIZI

CHORVA NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN O‘ZBEK XALQ
MAQOLLARINING LINGVOPOETIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI
(“Qo‘y” lug‘aviy-ma‘noviy guruhi asosida)

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

UO‘K: 811.512.133’373.7:398.9 (=512.133)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Sharipova Maftunaxon Jamshid qizi

Chorva nomlari asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari (“Qo‘y” lug‘aviy-ma’noviy guruhi asosida)..... 3

Шарипова Мафтунахон Жамшид қизи

Лингвопоэтические и стилистические особенности узбекских народных пословиц, сформулированных на основе названий скота (на основе словарно-смысловой группы “Овца”) 21

Sharipova Maftunaxon Jamshid qizi

Linguopoetic and stylistic features of Uzbek folk proverbs formed on the basis of livestock names (Based on the lexical-spiritual group “Sheep”)..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 46

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHARIPOVA MAFTUNAXON JAMSHID QIZI

**CHORVA NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN O‘ZBEK XALQ
MAQOLLARINING LINGVOPOETIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI**
(“Qo‘y” lug‘aviy-ma‘noviy guruhi asosida)

10.00.01– O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2724 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (buxdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Jo'rayeva Bibish Muxsinovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Muhammedova Saodat Xudoyberdiyevna**
filologiya fanlari doktori, (DSc) professor

Maxmaraimova Shoxista Tuxtashевна
filologiya fanlari doktori, (DSc) professor

Yetakchi tashkilot: Jizzax davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «25» mart soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11.Tel: (+99865) 221-29-14, 221-27-07,e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2349 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol qo'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «11» mart kuni tarqatildi.

(2023-yil «11» mart dagi NS -raqamli reyestr bayonnomasi)



G.N. Murodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.G'aybullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

M.K. Abuzalova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi filologiya fanlari
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda turli tillar asosida madaniyat va til o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish faollashmoqda. Har bir etnik guruh tilda o‘z qarashlarini; olam, uning idroki va turli xil tabiiy-ijtimoiy sharoitlar, iqtisodiy turmush tarzi ta’sirida ming yillar davomida rivojlanib kelayotgan dunyoning milliy manzarasini ifodalaydi. Til insoniyatning umumiy tajriba ombori bo‘lib; ushbu tajriba so‘z, ibora, maqol, xatti-harakat me’yorlari, insonning ma’lum bir madaniyatga mansubligini belgilaydigan pretsedent matnlarda ifodalanadi. Jamoaviy hikmatning avloddan avlodga o‘tishini ta’minlaydigan maqolda ajdodlarining ijtimoiy-tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me’yor, estetik ideallarini aks ettirilgan bo‘ladi.

Dunyo tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetikasini tadqiq etish nazariyasi, lingvopoetikaning turdosh filologik fanlar lingvostilistika va adabiyotshunoslik bilan bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Xalq madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan badiiy adabiyot, jumladan, kichik badiiy matn sanaladigan maqol millat dunyoqarashi, o‘zligining ifodasi hisoblanadi. Shu sababli og‘zaki ijod namunalari ma’lum bir madaniy va tarixiy davr muhitiga kirib borish hamda o‘sha davr kishilarining orzu-o‘yi, ideali, axloqi-estetik qadriyatlarini aks ettirish barobarida dolzarblik kasb etadi, hamma vaqt tadqiqotchilar e’tiborini o‘ziga jalb etadi. Maqolni turli aspektlarda o‘rganish bilan bir qatorda ularning lingvopoetik va uslubiy xususiyatlarini ochib berish bugungi tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda lingvopoetika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika kabi yo‘nalishlar rivojlanmoqdaki, har bir yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda, ma’lum darajada, milliylikimiz aks etmoqda. Millatimizning nodir va noyob madaniy boyligi hisoblanmish maqollar hozirga qadar turli aspektlarga o‘rganilgan, o‘rganilmoqda. Biroq hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida chorva nomlari asosida shakllangan maqollarning lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. “Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biri”¹ sifatida belgilangan ekan, bu maqollarga oid tadqiqotlarning ham hozirgi vaqtda dolzarb va muhimligini yana bir karra isbotlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrda “O‘zbek tilini davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrda “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son, 2020-yil 20-oktabrda “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-marifiy ishlar samadorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori, 2020-yil 3-martda Vazirlar Mahkamasining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi”, 2018-yil 29-dekabr. – B. 3.

adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 117-son Qarori va ushbu sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu dissertatsiya ishida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zoonimlarni, zoonim komponentli birliklarni o'rganish turli xalqlarning madaniyati, urf-odati, tili hamda ijtimoiy turmush tarzi bilan tanishish imkonini beradi. Jahon tilshunosligida dastlab ilmiy zoologiya asoschisi qadimgi yunon olimi Arastu (mil. avv. 384-322) hayvonlarning 454 turini tavsiflab, ilk marta ularning taksonomiyasini, ya'ni tasniflash, tizimlashtirish tamoyillari haqidagi ta'limotini yaratishga harakat qildi; taniqli shved tabiatshunosi Karl Linney zoonimlarning zamonaviy ilmiy tasnifini fanda aks etishiga xizmat qilgan olim sanaladi va u har bir turni ikkita lotincha so'z bilan nomlashni taklif qildi².

XX asr boshlarida tilshunoslik sohasida zoonimlar bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar *animalizm*, *zoosemizm*, *zoonim*, *zoomorf*, *zoomorfizm*; XX asr oxirlarida esa *makrozoonim*, *mikrozoonim* kabi atamalarni fanga olib kirishdi. Hayvonlarning nomlariga nisbatan "zoonim" atamasini birinchi marta fanga olib kirgan tadqiqotchi Raspolixina bo'lsa, A.A.Kipriyanova maqollardagi hayvonlarning nomlariga nisbatan *zoosemizm* atamasini ishlatadi. Zoonimlarni jahon tilshunosligida Ch.Inkuy, N.A.Klushin, G.Yuanyuan, O.Y.Semina, O.V.Galimova, Z.U.Abdualiyeva, K.T.Gafarova, L.Imo, S.Chuantin kabi olimlar o'rganishgan. Turkiyshunoslikda zoonimlarning tadqiqi M.Zamaxshariy, M.Koshg'ariy, B.Bafoyev, N.R.Nishonova, B.P.Zaripov, D.M.Yuldasheva, A.Omonturdiyev, B.M.Jo'rayeva, D.A.Tosheva, G.Z.Roziqova³ kabi tilshunoslar

²Абдуалиева З.У. Гипонимо-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2010. – 25 с.

³ Инкуй Чжэн. Русские зоонимы в комплексном лингвистическом рассмотрении: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001. – 158 с.; Klushin N.A. Zoo and phytomorphic characteristics of man in English conversational speech: Author's abstract. kand. filol. science. – Nizhny Novgorod, 1991. – 22 p.; Юаньюань Гэн. Моделирование лексико-деривационного пространства: на материале русской зоолексики: Автореф. дисс.канд. фил. наук. – Екатеринбург, 2018. – 28 с.; Семина О.Ю. Вторичные значения зоонимов русского и английского языков (на материале национальных корпусов): Автореф. дисс.канд. фил. наук. – Орел, 2008. – 15 с.; Галимова О.В. Этнокультурная специфика зоонимической лексики, характеризующей человека: На материале русского и немецкого языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20. – Уфа, 2004. – 24 с.; Абдуалиева З.У. Гипонимо-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2010. – 25 с.; Гафарова К.Т. Сопоставительный анализ фразеологических единиц с зоонимами и фитонимами в таджикском, немецком и русском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2007. – 24 с.; Имо Ли. Лексико-семантические особенности русских зоосемизмов (на фоне китайского языка): Дисс. ... док. филол. наук. 2020. – 225 с.; Чуаньтин Цзюй. Семасиологическая структура паремий с компонентом-зоонимом в русском и китайском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. 2020. – 148 с.; Абдуалиева З.У. Гипонимо-эквонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2010. – 25 с.; Koshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). Uch tomlik. I tom. – T.: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960. – 500 b. Koshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). Uch tomlik. II tom. – T.: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. – 428 b. Koshg'ariy M. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). Uch tomlik. III tom. – T.: O'zbekiston SSR Fanlar

tomonidan amalga oshirilgan.

Jahon tilshunosligida lingvopoetika yoʻnalishida V.V.Vinogradov, R.A.Matveyeva, A.A.Lipgart, L.V.Sherba, O.S.Axmanova, V.Y.Zadornova⁴ kabi olimlar bir qator tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tili masalalarini oʻrganish XX asrning 50-yillaridan boshlangan boʻlib, olimlardan Sh.Shoabdurahmonov, A.Gʻulomov, I.Sulton, Gʻ.Abdurahmonov, X.Doniyorov, Q.Samadov, N.Shukurovlar badiiy tildan foydalanish mahorati haqidagi fikrlarini maqolalarda ifodaladilar. XX asrning 80–90-yillarga kelib yozuvchilarning tildan foydalanish mahorati, maʼlum asar tili va uslubi tadqiq etilgan bir qator ishlar maydonga kela boshladi.

Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari D.Tosheva⁵; zoonim komponentli maqollarning shakllanish asoslari B.Joʻrayeva⁶ tomonidan oʻrganilgan boʻlsa-da, chorva nomlari tarkibiga kiruvchi “Qoʻy” LMGiga aloqador birliklar lingvopoetik va uslubiy jihatdan maxsus tadqiq etilmaganligi ushbu mavzuni alohida oʻrganishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oʻzbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2020-2024-yy.) yoʻnalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi oʻzbek xalq maqollaridagi “Qoʻy” LMGiga aloqador birliklarni semantik guruhlariga ajratgan holda tavsiflash, shu asosda har bir maʼnoviy guruhga xos birliklarning lingvopoetik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim deb topildi:

akademiyasi nashriyoti, 1963. – 468 b.; Nishonova N.R. Oʻzbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili: Filol.fanlari nomzodi... diss. avtoref. – T., 2000. – 24 b.; Zaripov B. Zoonimlarning badiiy sanʼat turlarini hosil qilishdagi ishtiroki (A.Navoiy asarlari asosida): Filol.fanlari nomzodi... diss. – T., 2002. – 215 b.; Yuldasheva D.M. Oʻzbek bolalar folklori tilida zoonimlar: Filol.fanlari nomzodi... diss. – T., 2007. – 160 b.; Omonturdiyev A. Professional nutq evfimikasi (chorvadorlar nutqi misolida): Filol. Fanlari doktori diss... – T., 2009, – 253 b.; Joʻrayeva B.M. Oʻzbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: fil.fan.doktori (DSc)... diss. – Samarqand, 2019. – 237 b.; Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. – T., 2017. – 134 b.; Roziqova G.Z. “Devonu lugʻotit turk” asaridagi ot leksemalarning semantik, funksional va uslubiy xususiyatlari: fil.fan.doktori (DSc) diss... Avtoref. – Fargʻona, 2021. – 72 b.

⁴ Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М., 1963. – 255 с.; Майтиева Р.А. Структурно-семантическая характеристика пословиц и поговорок даргинского языка в сопоставлении с английским: Автореф. дисс... кандидат филологических наук. – Махачкала, 2011. – 17 с.; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале английской литературы 1620вв.). Дисс... докт. филол. наук. – М., 1996. – 234 с.; Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – М., 1957. – 188 с.; Ахманова О.С. К вопросу о словосочетании в современном английском языке // Изв. АН СССР. ОЛЯ. – Том IX, выпуск 6. – М., 1950. – С. 476-491.; Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс... докт. филол. наук. – М., 1992. – 479 с.

⁵ Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss... – T., 2017. – 134 b.

⁶ Joʻrayeva B.M. Oʻzbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: fil.fan.doktori (DSc) diss... – Samarqand, 2019. – 237 b.

jahon hamda turkiy tilshunoslikda zoonimlar, zoonim komponentli birliklar tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlarni o'rganish va tahlil qilish;

“Qo'y” LMGi ishtirok etgan o'zbek xalq maqollarining ijtimoiy shartlangan ma'nolarini izohlash; leksemalarning kundalik iste'molga yaroqlilik jihatdan ahamiyatlilik hamda ahamiyatsizlik darajasini aniqlash;

to'plangan ma'lumotlar asosida “Qo'y” lug'aviy-ma'noviy guruhiga oid birliklar ishtirok etgan maqollarning lingvopoetik hamda uslubiy xususiyatlarini ochib berish;

badiiy asarlardan ushbu birliklar ishtirok etgan matnlarni belgilash, shu asosda o'zbek xalqining o'ziga xos ijtimoiy turmush tarzini ko'rsatib beruvchi lingvistik birliklarni aniqlash va tahlil etish.

Tadqiqotning obykti sifatida o'zbek xalq maqollari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini “Qo'y” lug'aviy-ma'noviy guruhiga oid birliklar ishtirok etgan o'zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlarini tahlil etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, semantik, qiyoslash, komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi mazkur ishning quyidagi asosiy xususiyatlari bilan belgilanadi:

tadqiqot davomida “Qo'y” LMGiga oid birliklar ishtirok etgan 261 ta o'zbek xalq maqoli, ushbu maqollar asosida shakllangan 52 ta semantik guruh hamda “Qo'y” LMGiga oid 32 ta lug'aviy birlik aniqlangan;

“Qo'y” LMGiga tegishli birliklardan o'zbek xalq maqollari tarkibida qo'llanilishiga ko'ra faol (*qo'y, qo'chqor, qo'zi*); nofaol (*sovliq, to'qli, shishak, hisori, jaydari*); qo'llanilmagan (*barra, tusoq, chori, novchori, panji, mang'i, chang'i, marri, qirri, bo'rdoqi, baqlan, jundas jaydari, qo'ng'iroti, arabi, merikos, shirboz, balder qozi, baqlan, tishak, irk, man, vasila, olot zotli, qorako'l (nav)*) leksik birliklar mavjudligi asoslangan.

Qo'y” LMGiga oid leksemalarning assotsiativ maydoni belgilanib, mazkur maydondan *qo'ychi, qo'ychivon, g'anchi* kabi birliklar ham o'rin olishi dalillangan.

“Qo'y” LMGiga mansub birliklardan “qo'y” (40 dan ortiq); “qo'chqor” (3 ta); “qo'zi” (8 ta); “to'qli” (3 ta); “sovliq” (1 ta) “hisori” (1 ta); “shishak” (1 ta), “jaydari” (1 ta) leksemalari qatnashgan maqollarning uslubiy xususiyatlari, semantikasi, badiiy-estetik qiymati dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqot natijalari tilshunoslik fanining lingvopoetika, uslubshunoslik kabi yangi yo'nalishlarini ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitish, ushbu sohalarida yangi tadqiqotlar rivoji uchun o'ziga xos ilmiy yondashuvlarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadi;

o'zbek xalq maqollari tarkibidagi “Qo'y” LMGiga oid birliklarni tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar o'zbek paremiologiyasi va etnolingvistikasi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishga, tilshunoslikning leksikologiya, uslubiyat va lingvopoetika yo'nalishlari bo'yicha darslik hamda o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi;

tadqiqot natijalari asosida “Chorva nomlari asosida shakllangan o'zbek xalq paremalarining qisqacha izohli lug'ati” (“Qo'y” lug'aviy-ma'noviy guruhi asosida)

yaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'zbek xalq maqollarida "Qo'y" LMGiga oid birliklarning tadqiqi nazariy manbalar yordamida atroflicha ochib berilganligi hamda shu asosda ularning o'ziga xos ko'chma ma'nolari belgilanganligi hamda ushbu maqollar boy daliliy materiallarga tayangan holda chuqur tadqiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy xulosalari "Qo'y" LMGiga oid o'zbek xalq maqollarini lingvopoetik va uslubiy jihatdan o'rganish uchun imkoniyat yaratadi, o'zbek tilshunosligida lingvopoetika yo'nalishi rivojlanishiga ma'lum hissa bo'lib qo'shiladi. O'zbek xalq maqollari tarkibida qo'llangan "Qo'y" LMGiga oid birliklar ifodalagan o'z hamda ko'chma ma'nolarni batafsil o'rganish har qaysi birlikning o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha tadqiq etishga yo'l ochadi.

"Qo'y" LMGiga oid birliklar ishtirok etgan xalq maqollarining ilmiy tadqiqi o'zbek xalq maqollari hamda frazeologiya bo'yicha yaratilajak izohli lug'atlar uchun manba bo'la olishi; "Frazeologiya", "Leksikologiya" "Lingvokulturologiya" bo'yicha maxsus kurslar uchun asos bo'la olishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

Tadqiqot davomida "Qo'y" LMGiga oid birliklar ishtirok etgan 261 ta o'zbek xalq maqoli, ushbu maqollar asosida shakllangan 52 ta semantik guruh hamda "Qo'y" LMGiga oid 32 ta lug'aviy birliklarning lingvopoetik va uslubiy xususiyatlarining o'rganilishi, maqollardagi "Qo'y" LMGiga oid birliklarning ma'no ifodalash imkoniyatlari qayd etilgan ilmiy xulosalardan FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzusidagi fundamental loyihada (2013-2015-yy) foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 22-noyabrdagi 432/1-sonli ma'lumotnomasi) Natijada loyiha doirasida tahlilga tortilgan maqollar haqidagi nazariy bilimlarning yangi ma'lumotlar bilan boyishiga erishilgan.

"Qo'y" LMGiga tegishli birliklardan o'zbek xalq maqollari tarkibida qo'llanilishiga ko'ra faol (*qo'y, qo'chqor, qo'zi*); nofaol (*sovliq, to'qli, shishak, hisori, jaydari*); qo'llanilmagan leksik birliklardan A-OT-2019-10 raqamli "O'zbek tilida neyning: me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2019-2022-yy) foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 16 dekabrdagi 01/4-3495-sonli ma'lumotnomasi) Natijada bugungi kunda unutilgan yoki unutilayotgan milliy o'yin, udum, an'analarimiz saqlanib kelayotganligini tahlil qilishda ushbu xulosalariga tayanilgan.

"Qo'y" LMGiga oid leksemalarning assotsiativ maydoniga kiruvchi *qo'ychi, qo'ychivon, g'anchi* kabi birliklarning ham o'zbek xalq maqollarida milliy-madaniy qarashlarni aks ettirishdagi o'rni, unda milliy mentallikni ifodalovchi hayvon nomlarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari tahlilidan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Buxoro" telekanalining "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" ko'rsatuvlarida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Buxoro" telekanalining 2022-yil 28-noyabrdagi №1-313-

son ma'lumotnomasi). Bu orqali ushbu ko'rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan va ular yangi ma'lumotlar bilan takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 5 ta jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 19 ta ilmiy maqola va tezislar chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 144 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob "**Zoonimlar tilshunoslik obykti sifatida**" deb nomlangan bo'lib, ikki fasldan tashkil topgan. "Jahon tilshunosligida zoonimlar tadqiqi" faslidan jahon tilshunosligida zoonimlarning tadqiqi dastlab ilmiy zoologiya asoschisi qadimgi yunon olimi Arastu⁷ (mil. avv. 384–322)dan boshlanishi; zoonimlarning zamonaviy ilmiy tasnifi fanda aks etishi taniqli shved tabiatshunosi K.Linney nomi bilan bog'liqligi⁸; XX asrning boshlarida tilshunoslikda animalizmlar, zoosemizmlar, zoonimlar; zoomorfizmlar kabi atamalarning vujudga kelishi; XX asrning 70-yillarida A.V.Superanskaya fanga "makrozoonim" hamda "mikrozoonim" atamalarini olib kirganligi; XX asr oxirida zoonimlarni o'rganishda kognitiv nuqtayi nazardan yondashgan tadqiqotchi Y.L.Lasota ekanligi⁹; F.I.Kartashkova, T.V.Matveyeva, I.A.Morozov, Y.M.Dorogaykina, I.Y.Vinakurova, Lafta, Ch.Inkuy¹⁰ kabi tadqiqotchilar xalqning milliy-madaniy

⁷ Maxmaraimova Sh.T. O'zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi (nominativ aspekt): Filol. fanlari doktori (DSc) diss... – Samarqand, 2020. – 285 b.

⁸ Maxmaraimova Sh.T. O'zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi (nominativ aspekt): Filol. fanlari doktori (DSc) diss... – Samarqand, 2020. – 285 b.

⁹ Лясота Ю.А. Английская зоосемия: учебное пособие/Ю.А.Лясота. – Владивосток: Издательство Дальневосточного университета, 1984. – 116 с.

¹⁰ Карташкова Ф. И., Куражева И. В., Егорова А. В. Имена животных как отражение ценностной картины мира в английской лингвокультуре / Министерство образования и науки РФ, Ивановский государственный университет. – Иваново: ИвГУ, 2009. – 152 с.; Матвеева Т.В. К лингвистической теории жанра / Т.В. Матвеева //Collegium. – 1995. – № 1– 2. – С. 65–71.; Морозов И. А. Феномен куклы в традиционной и современной культуре(кросс-культурное исследование идеологии антропоморфизма): автореф. д-ра ист. наук: 07.00.07 / И.А. Морозов. – М.: 2010. – 50 с.; Дорогайкина Е.М. Языковая репрезентация зоонимов в художественном тексте: диахронический аспект: Дисс. канд. филол. наук: 10.02.05. Красноярск, 2020. – 256 с.; Винокурова И. Ю. Животные в традиционном мировоззрении вепсов (опы реконструкции): Автореф. дис. ... канд. филол. Наук: 07.00.07. – Санкт-Петербург, 2007. – 45 с.; Аль-Бдер Аднан Хабиб Лафта. Русские

o'ziga xosliklarini ochib beruvchi, insonning tevarak-atrofdagi voqelikka munosabati va jamiyatdagi xulq-atvori haqidagi milliy-madaniy ma'lumotlarning saqlovchisi va tashuvchisi zoonimlar ekanligini qayd etganligi haqidagi nazariy ma'lumotlar mujassamlangan. Z.U.Abdualiyeva rus va o'zbek tillari zoonimiyasining hozirgi rivojlanish bosqichidagi leksik-semantik va struktur-grammatik xususiyatlarini tahlil etadi, terminologik jarayonlar, ularning shakllanish mexanizmlarini aniqlaydi; zoonimlar tizimida ellikka yaqin nomlar¹¹ mavjudligini aniqlab, "qo'chqor/qo'y" umumiy ma'noli zoonimning semantik variantlari o'rtasida ekvonomik munosabatlarga alohida e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, olim funksional-semantik mikrosistemaning "qo'y" umumiy ma'nosiga ega *bichilgan qo'y//bichma, axta, qo'y, qo'chqor* leksik birliklaridan iboratligi, shuningdek, "qo'zichoq" leksemasining ko'rsatkichlari (denotatsiyalari) *qo'zi//qo'zichoq, tuxli* – "bir yoshli qo'zi", *shishak* – "bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan qo'y" (bog'lan, rohila) kabi birliklar ekanligini qayd etadi.

"Turkiyshunoslikda zoonimlarning o'rganilishi" nomli ikkinchi faslda bu yo'nalishda amalga oshirilgan lingvistik tadqiqotlar tahlilga tortilgan. O'rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy asarlarida hayvon nomlari bilan bog'liq leksemalar uchraydi. XI asr filologi Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida 200 ga yaqin zoonim, 100 ga yaqin qush nomlarini keltirib o'tadi¹². B.Bafoyev XV asrda Navoiy asarlari tilida uchraydigan 76 ta chorva mollari, yovvoyi yirik shoxli hayvonlar; 71 ta chorvachilikka oid; 94 ta qush; 41 ta kelib chiqishi o'zbek, tojik va arab tillari bilan bog'liq bo'lgan mayda hayvon; 7 ta suvda yashovchi zoonimlarni bildirish uchun qo'llangan so'z-islmlarni aniqlaydi¹³. XVII–XVIII asrda chig'atoy-fors tillarining ideografik lug'atini yaratgan olim Muhammad Chingiy "Kelurnoma" nomli leksikografik kitobida hayvon nomlarini tavsifladi¹⁴. Turkolog M.V.Porxomovskiy o'z monografiyasida ilk marta mahalliy va jahon turkologiyasida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"idan tortib zamonaviy to'plamlargacha, jami 6000 ga yaqin turkiy maqollarning to'liq jamlanmasini lingvistik jihatdan tahlil qiladi¹⁵. Taniqli turkolog A.M.Shcherbak *qo'chqor* leksemasi deyarli barcha turkiy tillarda turli fonetik variantlarda hatto qadimgi yozma yodgorliklarda ham uchraydi, deya guvohlik beradi hamda bu leksemashaklning to'liq varianti M.Koshg'ariyning devonida qayd etilganidek, *konchig'or* shakliga egaligi, *qo'chqor* leksemasining asosini "olovli" (koch kozu – "olovli qo'zi") ma'nosidagi "mard", "dadil" semalarini ifodalovchi so'zlar tashkil

пословицы с названиями животных в лингвокультурологическом аспекте: Дисс канд. филол. наук – Воронеж, 2012. – 202 с.; Инкуй Чжэн. Русские зоонимы в комплексном лингвистическом рассмотрении: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001. – 158 с.

¹¹ Абдуалиева З.У. Гипоним-эвонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2010. – 25 с.

¹² Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... – T., 2017. – B. 5.

¹³ Бафоев Б. История древних слов (на узб. яз). – Т.: Фан. 1991, – 91 с.

¹⁴ Абдуалиева З.У. Гипоним-эвонимические отношения в системе зоонимов русского и узбекского языков: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Душанбе, 2010. – 25 с.

¹⁵ Порхомовский М.В. Турецкие пословицы в языке и речи. Языки славянской культуры. – М., 2014. –174 с. <https://www.twirpx.com/file/3615704/>

etishi ta'kidlaydi¹⁶.

N.A.Samoylovich, N.A.Baskakov, E.A.Agayan oltoy hamda arman ayollari nutqida qo'llanilishi taqiqlangan hayvon nomlari – tabular tadqiqini amalga oshirgan. XI–XIV asrlar oralig'ida yaratilgan turkiy yozma manbalar matnida qo'llangan zoonimlar, ularning genetik nuqtayi nazardan tarkibi, XI–XIV asrlarda qo'llangan zoologik terminlarning qadimgi turkiy til (VI–X) va eski o'zbek tili (XV–XIX) obidalari hamda hozirgi zamon turkiy tillari (o'zbek, qisman turk) bilan o'zaro munosabati tahlili B.B.Abdushukurovning nomzodlik ishidan o'rin olgan¹⁷. N.R.Nishonova o'zbek tilida “hayvon” arxisemasi bilan umumlashgan leksemalar qamrovi masalasini yoritadi¹⁸. B.M.Jo'rayeva o'zbek tilshunosligida maqollar shakllanishining intralingvistik asoslarida lisoniy, folkloristik, etnografik, diniy manbalar paradigmasi yetakchi omil bo'lganligini, maqollar paydo bo'lishining ekstralingvistik omillariga hayvon nomlari ham yetachilik qilishini faktik materiallar asosida dalilladi¹⁹. D.A.Tosheva o'zbek tilida 97 turdagi zoonim ishtirok etgan 1668 ta maqol; qiyoslash maqsadida olingan ingliz tilidagi 68 turdagi zoonim ishtirok etgan 466 ta; rus tilida 40 turdagi zoonim ishtirok etgan 202 ta maqol mavjudligini aniqlaydi²⁰.

“Devonu lug'otit turk”da “Qo'y” LMGiga aloqador birliklar tahlili” deb nomlangan faslda asardagi “Qo'y” LMGi bilan bog'liq birliklar quyidagi tasnif asosida tahlilga tortildi: “Qo'y saqlanadigan joy nomlari” – *ag'il, qasi*; “Qo'yning yoshga ko'ra darajalanishi” (*balder qozi* – ertagi qo'zi; *baqlan* – *baqlan qozi* – yosh va semiz qo'zi; *toqli* – to'qli, olti oylik qo'chqor, qo'zi; *tishak* – ikki yoshli qo'y (“O'TILda ikki yashar ayg'ir yoki qo'chqor g'o'non²¹, ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'ygan qo'y yoki echki²² do'nan deb nomlanishidan kelib chiqib, turkiy xalqlar hayotida ikki yoshli qo'y *tishak*, *g'o'non*, *do'non* nomlari bilan atalganiga guvoh bo'lindi); *irk* – qo'y, to'rt yoshga qadam qo'ygan qo'y; “Qo'y a'zolari va mahsuloti nomlari” – 1) *yungi va u bilan bog'liq mahsulotlar nomi*; 2) *terisi va u bilan bog'liq mahsulotlar nomi*; 3) *qo'y a'zosi nomlari* 4) *qiyi (o'g'it)*. Shuningdek, *Quzda qar o'ksamas, Kojda jag' o'ksamas; Tevaj minib qoj ara jashmas; Qorqmish kishiga qoj bashi qosh ko'rinar; Iki qochnar bashi bir ashichda pishmaz* maqollari ham tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Qo'y” lug'aviy-ma'noviy guruhi asosida shakllangan o'zbek xalq maqollari lingvopoetikasi**” deb nomlangan bo'lib, bobda dastlab jahon va o'zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasida amalga oshirilgan ishlar tahliliga e'tibor qaratilgan. “Qo'y” LMGi leksemalari

¹⁶ Щербак А.М. Название домашних и диких животных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Издательство АН СССР, Институт языкознания, 1961. – 82-172 с.

¹⁷ Abdushukurov B.B. XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar asr turkiy yozma manabalar tilidagi zoonimlar: Filol.fan.nomz.... diss. – T., 1998. – 132 b.

¹⁸ Nishonova N.R. O'zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili: Filol.fanlari nomzodi... diss. – T., 2000. – 144 b.


¹⁹ Jo'rayeva B.M. O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari: fil.fan.doktori (DSc)... diss. – Samarqand, 2019. – 237 b.

²⁰ Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – T., 2017. – B. 37.

²¹ Begmatov E. va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 464 b.

²² Begmatov E. va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 675 b.

metaforizatsiyasi” deb atalgan dastlabki faslda “Qo‘y” LMGiga oid birliklar ishtirok etgan metaforik maqollar 6 ta ma‘naviy guruhga (29 ta xalq maqoli) ajratilgan holda badiiy asarlardan olingan parchalar orqali dalillangan, o‘zga millat vakillari tilida uchraydigan maqol shakllari bilan qiyoslab o‘rganilgan. “Qo‘y” LMGi ishtirok etgan maqollarni metaforalashuvi jihatidan quyidagi mavzuviy turlarga ajratish mumkin:



1-rasm. “Qo‘y” LMGi ishtirok etgan maqollarni metaforalashuvi jihatidan mavzuviy guruhlariga bo‘linishi

O‘zbek xalqining mehmondo‘stligi, mehmon oldiga eng taniq narsalarini qo‘yishi milliy va sharqona mental xususiyat sanaladi. Mazkur etnik xususiyat xalqning lisoniy olamida ham aks etib, “*Ko‘ngli oq qo‘ydan ham yuvosh, Moy bersang ham yeyaveradi*” maqoli orqali reallashadi. *Qo‘y* o‘xshatish etalonida o‘zbekcha milliy-madaniy qarash va tasavvur yorqin aks etgan. *Qo‘y* – beozor, atrofdagilarga zarar yetkazmaydigan, kishilarning ko‘ngliga qarab ish tutadigan yuvosh insonlarga qiyoslangan. Yuvosh – *sho‘xlik qilmaydigan, tinch yoki jim yuradigan, beozor* ma‘nosini ifodalab, shu sifatga ega bo‘lgan kishilarga nisbatan ishlatiladi. *Moy* so‘zi *moydek* ma‘nosida odamning ko‘ngliga juda ham xush yoqadigan narsa, ko‘pincha, gap, so‘z, muayyan harakat-holat²³ni ifodalash maqsadida qo‘llanadi. Turkman xalq og‘zaki ijodida esa qo‘y (qo‘chqor) obrazi, odatda, kamtar insonlarni ifodalashga xizmat qiladi.


Ikkinchi fasl “Qo‘y” LMGi leksemalarida metonimiya, sinekdoxa” deb ataladi. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollari fondining ma‘lum qismi metonimiya va sinekdoxaga asoslanadi. Xususan, ushbu maqollardagi metonimik ko‘chirma quyidagi asosiy assotsiativ aloqalarga asoslanadi:

*Amma-xola yig‘ilib dangona qilur,
Bo‘lib ololmay hangoma qilur.*

Dangona – ov, sayd, uloqchi keltirgan uloq go‘shiti, g‘oyibdan qo‘lga kirgan,

²³Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – T.: Ma‘naviyat, 2013. – 132 b.

oʻrtaga qoʻyib baham koʻriladigan narsa. *Dangona* soʻzi soʻzlashuvchilarning muayyan vaziyatni belgilash uchun maʼlum til vositasini tanlashi oqibatida yuzaga kelgan boʻlib, bir necha kishi oʻrtada pul yigʻib, qoʻy olib soʻyib, goʻshtini boʻlib olishi; oʻgʻri va qaroqchilar topgan oʻljalarini oʻzaro oʻrtada taqsimlashi kabi holatlarga nisbatan ham ishlatiladi. Amma-xolalar ota-onadan qolgan merosni, tinchgina hamjihatlik bilan boʻlishib ololmay, nari-beri gap (hangoma)ga boradilar, yaʼni urush-janjal chiqaradilar.



2-rasm. “Qoʻy” LMGi ishtirok etgan maqollarning metonimiyalashuvi jihatdan asosiy assosiativ aloqalari

Itidan boʻlgan qurbonlikka yaramas. Odatda, qurbonlik uchun qoʻy soʻyiladi. Qoʻy zoonimi Qurbonlik marosimi bilan bevosita bogʻliq boʻlganligi sababli ushbu maqolda metonimiya hodisasining yuzaga chiqishiga xizmat qilgan. Baʼzi qoʻylar tugʻib oʻladi-da, bolasi yetim qoladi. Shunday yetim qoʻzini, yangi tuqqan itga emizikdosh qilib qoʻyish holati mavjud. Bu kabi it emgan qoʻzilar qoʻy boʻlgach, qurbonlikka soʻyilmaydi. It emgan qoʻy tugʻsa, uning bolasi ham qurbonlikka soʻyilmaydi, chunki ular “itdan tarqalgan” hisoblanadi.

Bir qoraga bir qora,

Bermaganning beti qora. Qora – qoramol, qoʻy, echki. Koʻchmanchi chorvadorlar turmushidagi taomillardan biri xonadonga favqulodda qoʻnoq (mehmon) kelsa, uning sharafiga jonliq soʻyilish odati boʻlgan. Jonliq boʻlmagan taqdirda qoʻshnidan biror mol olib soʻyilgan. Soʻng qarzgga olingan bir qora oʻrniga boshqa bir qora qaytarilgan. Shunday zarur vaziyatda qoʻshniga olgan qarzini, yaʼni qorasini bermaslik, nokaslik qilish – katta ayb hisoblangan, bunday kimsalar “toʻp”ga solinib, unga “toʻqqiz ayb” qoʻyilgan (“Toʻqqiz ayb – jarima, uloqdan tortib tuyagacha toʻqqiz bosh molni undirib olish²⁴). Ushbu maqolda keltirilgan *qora* leksemasi qoʻy zoonimiga ishora qiluvchi, unga aloqador birlik sifatida metonimiyani hosil qilgan.

Bundan tashqari, ikkinchi faslda sinekdoxa hodisasi kuzatilgan maqollar ham tahlilga tortilgan.

Itning uyati kelsa, pocha tashlasang ham yemaydi – (pocha – qoʻy, echki, qoramol, ot oyoqlarining pastki qismi) *pocha* qoʻyning tana aʼzosi sifatida qism

²⁴ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Maʼnolar maxzani (oʻzbek maqollarining izohli lugʻati) – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – B. 42.

orqali butun anglashinishiga xizmat qilgan va sinekdoxa hodisasini yuzaga chiqargan. Maqoldagi *pocha* leksemasi *qo'y* zoonimi bilan bog'liq tushuncha ekanligi mazkur maqolda sinekdoxa bilan birgalikda metonimiya mavjudligini ham ko'rsatadi. M.Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida ushbu maqolning quyidagi shakli uchraydi: "Itka ushut atsa uldan jemas – ya'ni itga uyat kelsa, oriyat qilsa, *pocha* tashlasang ham yemaydi". Varianti: Itning oriyati kelsa, suyak tashlasang ham yemaydi.

Kikilim kikil, bekitganning qo'yniga tikel. Sinekdoxa hodisasi reallashgan ushbu maqolda *kikil* – qo'zichoqning oshig'i sifatida qism orqali butunni, ya'ni qo'y zoonimini ifodalashga xizmat qilgan. *Kikil*, ququl – echki, qo'zichoqning oshig'i. Ba'zan kichik jussali, ushoqqina odamni shu oshiqqa tashbih etib "*kikil*" deb ataydilar. Bu maqol bolalarning ilgarigi oshiq o'yinidan kelib chiqqan, bir bola o'yinda yutib olgan oshig'ini qo'yniga solib, endi ketaman deb turganda boshqa bir bola o'z *kikilini* o'yinga tashlab: ana uning qo'ynidagi oshiqni yutib ol, *kikilim!*, degan mazmunda takror-takror aytib turgan. Demak, "Qo'y" LMGiga oid birliklar asosida shakllangan xalq maqollari ham unutilgan yoki unutilayotgan milliy o'yinlar ifodachisi, ulardan darak beruvchi manba hisoblanadi.

Bobning uchinchi fasli "Qo'y" LMGi leksemalarida kontrast, alliteratsiya va assonans" deb nomlanadi. Kontrast mikromatnning barcha turlariga xos hodisa sifatida baholanar ekan, u maqol tarkibida ham alohida ahamiyat kasb etadi va tadqiqotchilar fikriga ko'ra aynan shu jihat maqolning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Maqollardagi qarama-qarshilik tamoyilining universalligi uning shakliy va mazmuniy tuzilishidagi o'ziga xoslik bilan bevosita bog'liq. Zidlanish jarayonida "Qo'y" LMGiga oid birliklar *jo'jaxo'roz, echki, eshakka* nisbatan ustun; *toy, yo'lbars, bo'ri, ho'kiz, qo'chqor, bedovga* nisbatan quyi darajada turishi aniqlandi va ushbu zoomorflar qatnashgan 9 ta xalq maqoli izohlandi. Alliteratsiya, asosan, yozma shakldagi ifodani ohangdoshlik asosida oson esda saqlab qolish imkonini beruvchi vosita sanaladi. She'riy lug'atlarda alliteratsiya "badiiy nutqning, ayniqsa, misraning undosh tovushlarni takrorlash orqali ifodaliligini oshirishda eng qadimiy stilistik vosita" deb ta'riflanishini hisobga olsak, *Boyning tuyachisi bo'lsang, quv bo'lasan, Qo'ychisi bo'lsang, qul bo'lasan* maqolida *quv, qo'ychi, qul* leksemalari o'ziga xos ifodalilikni hosil qilgan. *Quv* – makr-hiyлага usta, ayyor; *qo'ychi* – boy, cho'pon, g'anchi; *qul* – gado shakllarida ifodalanmay, aynan *q* harfi bilan boshlanuvchi ko'rinishda berilishi ifodaning ravonligini ta'minlash barobarida xalq badiiy didining yuksakligidan guvohlik beradi. Assonans badiiy vosita sifatida alliteratsiya bilan bir qatorda turadi va, odatda, u bilan birlashgan holda kelib, badiylikni ifodalashning kuchli vositasi sifatida maydonga chiqadi. *Ovchining oshi oyog'ida, Qo'ychivonning baxti – qo'yida.* Maqolda *o* tovushining takrorlanishi hissiy ta'sir kuchini oshirgan va mazmunning oson esda saqlanishi, idrok qilinishini ta'minlagan (*Ovchining oshi oyog'ida*). Majoziy ma'noda har kim o'z kasbidan baraka topishi, tinimsiz mehnat qilib, rizq-nasibaga ega bo'lishi mumkinligi nazarda tutilgan.

To'rtinchi fasl "Qo'y" LMGiga oid nomlar lingvopoetik xususiyatlarining statistik tadqiqi" deb nomlangan bo'lib, "Qo'y" LMGiga oid birliklar qatnashgan xalq maqollarida lingvopoetik xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qilgan 12 ta

